

The Digital Age in Mother–Daughter Relationships: Social Media and the Generation Gap

Raqamli asr ona-qiz munosabatlarida: ijtimoiy tarmoqlar va generatsiyalar farqi

**Цифровая эпоха в отношениях мать–дочь: социальные сети
и разрыв между поколениями**

Gulmiraxon Abdullajonova

Qo‘qon universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishini tamomlagan

Qosimovagulmira99111@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli texnologiyalar asrida ona va qiz farzand o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarish jarayonlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalarining o’smir qizlarning shaxsiyat rivojlanishiga hamda oilaviy munosabatlar dinamikasiga ta’siri o’rganiladi. Qolaversa, tadqiqotda generatsiyalararo tafovut natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar tahlili ham keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, maqolada zamonaviy texnologiyalar ta’sirida ona-qiz munosabatlarining qanday o‘zgarayotgani, an’anaviy qadriyatlar va raqamli madaniyat o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritilgan. Hayotimizdagi muhim jarayonlardan biri bo‘lgan o‘smirlilik davridagi ro‘y beradigan tushunmovchiliklar xususida mulohaza va takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli asr, ona-qoz munosabatlari, o‘smirlarning ruhiy salomatligi, “Mafiya” o‘yini, ziddiyat, tushunmovchilik, raqamli jarlik, kiberzo‘ravonlik

Abstract: This article is devoted to a comprehensive analysis of the processes of change in the relationship between mother and daughter in the age of digital technologies. The study examines the impact of social networks, digital communication tools, and modern information technologies on the personality development of adolescent girls and the dynamics of family relationships. In addition, the study also analyzes the socio-psychological problems arising as a result of the generation gap. At the same time, the article highlights how mother-daughter relationships are changing under the influence of modern technologies, and the conflicts between traditional values and digital culture. It provides comments and suggestions on the misunderstandings that occur during adolescence, which is one of the important processes in our lives.

Keywords: Digital age, mother-daughter relationships, adolescents' mental health, "Mafia" game, conflict, misunderstanding, digital divide, cyberbullying

Аннотация: Данная статья посвящена комплексному анализу процессов изменения отношений между матерью и дочерью в эпоху цифровых технологий. В исследовании рассматривается влияние социальных сетей, цифровых средств коммуникации и современных информационных технологий на развитие личности подростков-девочек, а также на динамику семейных отношений. Кроме того, в работе проанализированы социально-психологические проблемы, возникающие в результате межпоколенческих различий. Также в статье освещается, как под воздействием современных технологий изменяются отношения между матерью и дочерью, раскрываются противоречия между традиционными ценностями и цифровой культурой. Приводятся размышления и предложения, касающиеся недопониманий, возникающих в одном из важнейших периодов жизни — в подростковом возрасте.

Ключевые слова: цифровая эпоха, отношения мать-дочь, психическое здоровье подростков, игра «Мафия», конфликт, недопонимание, цифровой разрыв, кибербуллинг

Kirish

XXI asr – raqamli texnologiyalar asridir. Smartphone, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va virtual haqiqat bugungi kundagi hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Biroq, bu texnologik inqilob nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni o'zgartirdi, balki eng intim va muhim insoniy munosabatlar – oila bog'lanishlariga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy dunyoda ona va qiz farzand o'rtaсидаги munosabatlar yangi qiyofaga kirib bormoqda. Agar avvalgi avlodlar uchun oilaviy qadriyatlar uzatish jarayoni asosan og'zaki an'analar, birgalikdagi faoliyat va bevosita muloqot orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon raqamli texnologiyalar tasobusidagi murakkab va ko'p qatlamlı xususiyat kasb etmoqda.

Zero, "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz."¹ Ma'lumki, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot, shaxsiy fikr bildirish, o'zini namoyon etish vositasi balki qizlarimizning shaxsini shakllantiruvchi kuchli omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa barcha insonlar hayotida, ayniqsa, o'smir qizlarning hayotida tub burilishlarga olib kelib, tahdidlar ostiga solmoqda.

Masalan, instagram O'zbekistonda eng ko'p foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoq bo'lib, 8 million foydalanuvchiga ega. Bu ko'rsatkich mamlakatimiz yoshlarining raqamli hayotdagi faolligini anglatadi. Biroq, bu raqamlar orqasida chuqur muammolar yashiringan. "2024-yilda O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasida 58,8 mingta jinoyat qayd

¹ O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 26-yanvar kuni "Prezident raisligidagi videoselektor" da so'zlagan nutqida

etilgan bo'lib, bu 2023-yildagi 5,5 ming holatga nisbatan keskin o'sishni ko'rsatadi.”² Bu statistika orqasida ko'plab yosh qizlarimizning ijtimoiy tarmoqlar orqali aldanib qolishi holatlari yotadi.

Darhaqiqat, “ko‘pchilik farzandlar uzoq shakldagi ifodadan qochishni istaydi va ota-onada bilan muloqotni qisqaroq shaklda yetkazishni afzal ko‘radi. Bu generatsiyalararo farqning bir qismi so‘nggi o‘n besh yil ichida mobil texnologiyalar rivojlanishi va ish stoli kompyuterlarining pasayishi bilan izohlanadi.”³

Bu jarayonda onalarning farzandiga yetarli e’tibor ajratmasligi ham muhim omillardan biridir. Ishdagi bandlik, uy-ro‘zg‘or ishlari va boshqa majburiyatlar bilan ovora bo‘lib, ba’zi onalar farzandi, ayniqsa qiz farzandi bilan dugona kabi yaqin bo‘lish, suhbatlashish, uning his-tuyg‘ularini eshitish, unga yo‘l ko‘rsatish zarurligini unutib qo‘yishadi. Natijada esa, ko‘plab o‘smir qizlar yolg‘iz qoladi, mehr va e’tibor izlab, begonalarga ishonib, o‘z shaxsiy ma’lumotlarini ulashishadi. Bu esa ko‘p hollarda, ularning aldanishiga, hattoki nomusining toptalishiga ham olib keladi.

To’g’ri, hozirda jamiyatimizda namunali, bizni faxrimizga aylangan bir qancha qizlarimiz bor. Lekin afsuski, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z hayotini barbod qiladigan qizlarimiz ham afsuski bor va bu ko‘rsatkich bugungi kunda xavfli darajaga yetdi.

Tadqiqotimizning dolzarbligi shuki, raqamli muhitda o‘sib kelayotgan qizlarimizning axborot oqimiga nisbatan zaifligi, onalarning esa ushbu muhitga yetarli darajada moslasha olmasligi natijasida ona-qiz o‘rtasidagi muloqot susaymoqda. Bu esa yoshlar orasida yolg‘izlik, noto‘g‘ri tanlovlар va xavfli virtual aloqalarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa, Raqamli asrda ona-qiz munosabatlari masalasi bir necha jihatdan o‘ta dolzarbdir.

Tadqiqotimizning asosiy muammolari shulardan iboratki, ijtimoiy tarmoqlarda “Mafiya o‘yinlari” va noto‘g‘ri tanishuvlar, ona-qiz o‘rtasidagi generatsiya farqi, onalarning

²O‘zbekistonda shaxsga doir ma’lumotlarning xavfsizligi: bugungi holati va kelajak istiqbollari. <https://daryo.uz/2025/05/23/ozbekistonda-shaxsga-doir-malumotlarning-xavfsizligi-bugungi-holati-va-kelajak-istiqbollari>

³ Barrie, C. K., Bartkowski, J. P., & Haverda, T. (2019). The digital divide among parents and their emerging adult children: Intergenerational accounts of technologically assisted family communication. Social Sciences, 8(3), 83.

farzand tarbiyasidagi kamchiliklaridir. Bugungi zamonaviy va raqamli dunyoda eng katta xavflardan biri – bu turli o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga keladigan noto'g'ri tanishuvlardir. "Mafiya o'yinlari" va shunga o'xhash onlayn platformalar orqali eng sodda va beg'ubor hatoo fotihasi bo'lgan qizlar ham notanish yigitlar bilan begona muloqotga kirishadilar.

Bu turdag'i muloqotlar qizlarni real hayotda ham xavfli vaziyatlarga olib kelishi mumkin, chunki virtual dunyodagi tanishliklar real uchrashuvlarga o'tishi mumkin. Shu kabi avvaliga oddiygina tanishuvlardan boshlangan virtual muloqotlar ildiz otgani sayin, qizlar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini, manzillarini, telefon raqamlarini va boshqa muhim axborotlarni begona odamlarga bevosita oshkor qiladilar. Bu ma'lumotlar keyinchalik ularni aldash yoki zarar yetkazish uchun, bugungi yosh avlod ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarni o'zlarining tabiiy muhitni sifatida qabul qiladi. Ular bu orqali ijodkorlik va ijtimoiylik faoliyatini amalga oshiradi, qator yangiliklar va muhim xabarlardan xabardor bo'lishadi.

Shu bilan birga, raqamli imkoniyatlar qizlarda mustaqillik va erkinlik hissini kuchaytiradi, bu esa onalarning nazorati bilan ziddiyat tug'diradi. Shu kabi generatsiya farqi tufayli qizlar onalarini zamonaviy emas, deb hisoblaydi va ularning maslahatlarini e'tiborga olmaydi. Generatsiyalar farqi nafaqat texnologik savodxonlik darajasida, balki hayotga qarash, qadriyatlar tizimi, muloqot uslublari va kelajak haqidagi tasavvurlarda ham namoyon bo'lmoqda. Natijada, ko'plab oilalarda ona-qiz o'rtaida tushunmovchilik, ishonchszizlik va hatto konflikt holatlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida raqamli asr sharoitida ona-qiz munosabatlarining o'zgarish dinamikasi, ijtimoiy tarmoqlarning o'smir qizlar shaxsiyat shakllanishidagi roli va generatsiyalar farqini bartaraf etishning samarali yo'llari chuqur tahlil qilinadi.

Metodologiya

Biz o'z tadqiqotimizda SWOT tahlili hamda taqqoslama va solishtirma usulidan foydalandik. Chunki SWOT tahlili har qanday mavzuning kuchli va zaif tomonlari,


imkoniyatlari hamda tahdidlarini aniqlashda eng samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli davrda ona-qiz munosabatlarini yanada mustahkamlash uchun dunyo bo'yicha tinchlik va insoniylik timsoli hisoblangan Kanadaning HalfTheSky Movement (Osmonning yarmi) tajribasini qo'llash O'zbekiston uchun qay darajada foydali va samarali bo'lishi statistik ma'lumotlar bilan taqqoslama va solishtirma usuli orqali batafsil yoritilgan.

Tahlil va natija

Biz o'z tadqiqotimiz bo'yicha olib borilgan izlanishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda "ona va qiz" munosabatlarini mustahkamlash va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishni yanada yuqori darajaga olib chiqish maqsadida Kanadaning HalfTheSky Movement (Osmonning yarmi) tajribasini taklif qilmoqdamiz. Bu tajriba nomi ayollar jamiyatning yarmini tashkil etishini ifodalovchi ramziy ibora hisoblanadi. Tajribaning asosiy mohiyati qizlar va ayollarning raqamli huquqlarini himoya qilish hamda ruhiy salomatligini mustahkamlashdir.

"HalfTheSky Movement" loyihasi doirasida ijtimoiy o'zgarishlar

Taqdim etilgan diagrammadan ayonki, biz ushbu tajribani mamalakatimizga moslashtirish orqali ona-qiz munosabatlari, ruhiy salomatlik va ijtimoiy tarmoqlardan



ijobiy foydalanish kabi sohalarda yuqori natijalarga erishishimiz mumkin.

Muhokama

Hozirgi kunda, O‘zbekiston ham raqamli asrda ijtimoiy munosabatlar, xususan, ona-qiz o‘rtasidagi aloqalarning yangi shakllanish jarayonini boshdan kechirayotgan davlatlardan biridir. Bu borada xalqaro tajribalar bilan solishtiradigan bo‘lsak, mamlakatimizda ijobiy yutuqlar bilan birga, o‘ziga xos salbiy muammolar ham mavjud. Bu jihatlarni quyidagi tartibda batafsil ko‘rib chiqamiz:

Munosabatlardagi avlodlararo tafovutlar

Raqamli texnologiyalar ona-qiz munosabatlariga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, jtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi an’anaviy-oilaviy kommunikatsiya modellarini tubdan o’zgartirib yubormoqda. Katta yoshdagি onalar va ularning raqamli muhitda o’sgan qizlari o‘rtasida paydo bo’lgan “raqamli jarlik” nafaqat texnologik farqlarni, balki qiymatlar tizimi va dunyoqarashidagi chuqr tafovutlarni ham aks ettiradi.

Generatsiyalar orasidagi kommunikatsiya o’zgarishlari

Generatsiyalar orasidagi kommunikatsiya shuni aniqlashtiradiki, zamonaviy qizlar o’z his-tuyg’ularini ifodalashda ko‘proq raqamli vositalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Bu esa onalar bilan bevosita muloqot o’rniga ijtimoiy tarmoqlar orqali kommunikatsiyani tanlashga olib kelmoqda. Buning natijasida esa, ona-qiz o‘rtasidagi samimiy suhbatlar kamayib, virtual muloqot darajasi ortib bormoqda. Bu holat oilaviy bog’lanishlarning sifatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Biroq, salbiy jihatlar ham sezilarli darajada kuchli. Ijtimoiy tarmoqlardagi “virtual obraz” yaratish ehtiyoji qizlarni haqiqiy “men”larini yashirishga majbur qiladi. Bu esa onalar bilan ochiq va samimiy muloqot o’rnatishtda to’siq bo‘lishi tabiiydir. Bundan tashqari, onlayn muhitdagi kiberzo’ravonlik, noto’g’ri ma’lumotlar va zararli kontentlar qizlarning ruhiy salomatligiga katta ta’sir qilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va generatsiyalar farqi haqida dunyoning taniqli olimlari va texnologiya sohasidagi yetakchi shaxslar shunday fikrlarni bildirgan:

George Orwell (ingliz yozuvchisi):⁴ ning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, "Har bir avlod o'zini oldingi avloddan aqlliroy, keyingi avloddan esa donoroq deb tasavvur qiladi." – Bu fikr har bir avlodning o'zini oldingi avloddan aqlliroy, keyingi avloddan esa donoroq deb hisoblash tendensiyasini yaqqol ko'rsatadi. Steve Jobs (Apple asoschisi):⁵ Jobs ko'pincha texnologiya va insoniyat kesishmasida bo'lism haqida gapirgan. U deyishicha, eng muhimi – texnologiyani insoniy ehtiyojlar xizmatida qo'llashdir.

Nassim Nicholas Taleb⁶ ning ilmiy tadqiqotlarida "Rasmiy ta'limga haddan ortiq urg'u beriladi – men bolalarimga baholar haqida qayg'urmaslikni, balki o'rganishdan zavqlanishni aytganman." – Rasmiy ta'limdan ko'ra, o'rganishga bo'lgan muhabbatning muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu iqtiboslar ona-qiz munosabatlaridagi raqamli transformatsiya jarayonlarini tushunishda muhim perspektivalar taqdim etadi va tadqiqot natijalarini chuqurroq talqin qilishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelgan. Biz bu davrda ona-qiz munosabatlarini yangicha yondashuvda rivojlantirishimiz dolzarb vazifaga aylangan. Maqolamizda ko'rsatilganidek, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, noto'g'ri tanishuvlar va generatsiya tafovuti qizlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Onalarning raqamli savodxonligini oshirish, maktab va jamiyatda qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali ushbu muammolarni kamaytirishga erishishimiz mumkin. Mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz orqali raqamli asrda duch kelinayotgan har bir muammoli vaziyatga eng samarali yechimga erishishimiz mumkin. Bu borada quyidagi takliflar samarali bo'ldishi mumkin:

⁴ Orwell, G. "Generational Perspectives and Social Evolution." *Essays and Observations*, London Literary Press, 1948.

⁵ Jobs, S. "Technology at the Intersection of Liberal Arts and Sciences." *Stanford Commencement Address*, Stanford University, 2005.

⁶ Taleb, N.N. "The Black Swan: The Impact of the Highly Improbable." *Random House*, New York, 2007, p. 234.

1. **Turli xil yig`ilishlar:** Maktab, kolej, turli oliy talimdagি ota-onalar yig`ilishlarida masul psixologlar ota-onalarga murojaat bilan chiqib, bugungi raqamli asr davrdagi holatni tushintirish.
2. **Raqamli savodxonlikni oshirish:** Onalar zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar haqida chuqur bilimga ega bo`lib, qizlarining raqamli faoliyatini tushunishlari zarur.
3. **Muvozanatli yondashuvni joriy etish:** Texnologiyalardan foydalanish va an'anaviy oilaviy qadriyatlar o`rtasida muvozanat o`rnatish muhim.
4. **Psixologik yordam markazlari faoliyatini kuchaytirish:** O`smir qizlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish mutaxassislar ishtirokida ishonch liniyalari va maslahat xizmatlari yo`lga qo`yilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. **Barrie, C. K., Bartkowski, J. P., & Haverda, T.** (2019). The digital divide among parents and their emerging adult children: Intergenerational accounts of technologically assisted family communication. Social Sciences, 8(3), 83.
<https://doi.org/10.3390/socsci8030083>
2. **Christopher Schwartz, Rebekah Overdorf.** (2019). «Subtle Censorship via Adversarial Fakeness in Kyrgyzstan». arXiv.
3. **HalfTheSky Movement.** (n.d.). «Digital Rights for Girls».
4. Axmedov, Sh. (2021). «Raqamli avlod va oila munosabatlari: Ona-qiz munosabatlarining zamonaviy tahlili». Toshkent: O`zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
5. **UNICEF.** (2020). «The State of the World's Children 2020: Children, Technology and the Digital World». <https://www.unicef.org/reports/state-of-worlds-children-2020>
6. **World Health Organization.** (2018). «Adolescent mental health».

7. Qodirova, M. (2020). «Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar psixologiyasi: O‘zbek sharoitida tahlil». Psixologiya va Pedagogika
8. **Kuss, D. J., & Griffiths, M. D.** (2017). «Social Networking Sites and Addiction: Ten Lessons Learned». International Journal of Environmental Research and Public Health, 14(3), 311. <https://doi.org/10.3390/ijerph14030311>
9. **Livingstone, S., & Smith, P. K.** (2014). «Annual Research Review: Lifting the Lid on Internet Childhood Research». Journal of Child Psychology and Psychiatry, 55(6), 635-648. <https://doi.org/10.1111/jcpp.12197>
10. Tursunova, G. (2019). «Generatsiyalararo kommunikatsiya va raqamli madaniyat: Ona va qiz o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri». Ilmiy Axborot, 5(8), 78-84.
11. <https://daryo.uz/2025/05/23/ozbekistonda-shaxsga-doir-malumotlarning-xavfsizligi-bugungi-holati-va-kelajak-istiqbollari>
12. <https://daryo.uz/2022/01/26/shavkat-mirziyoyev-inson-qadri-biz-uchun-qandaydir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas/>
13. <https://www.halftheskymovement.org/digital-rights>
14. <https://arxiv.org/abs/1906.08021>
15. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/adolescent-mental-health>